



## О‘TKIR HOSHIMOVNING “DUNYONING ISHLARI” QISSASIDA AYOL VA ZAMON QIYOFASI

*Safoyeva Farangiz Obidjon qizi*

*Student of Termiz State University , Faculty of Foreign Philology.*

*(Termiz davlat universiteti xorijiy filologiya fakulteti talabasi.)*

*Husniddin Suvonov*

*Termiz Davlat Universiteti, Adabiyotshunoslik fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O‘tkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari” qissasi haqida fikr yuritiladi hamda undagi ona obrazi haqida bolalikcha nigoh bilan qarayladi. Unda ushbu timsolning ijodkor qalamida o‘zgacha uslubda tasvir etilgani atroflicha tahlil qilingan va muhim ilmiy-nazariy xulosalar chiqarilgan.

Mazkur maqola taniqli yozuvchi O‘tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" asarini tahlil qilish bilan bir qatorda, unda yoritilgan dolzarb mavzularni yangicha yo‘nalishda baholashga qaratilgan. Maqolada muallifning asosiy e’tibori O‘tkir Hoshimov tomonidan yaratilgan ona obrazining sharq ayoli matonatiyu muruvvatini nechog‘lik aks etgani tahlil etilgan. Ishdag'i umumlashma xulosalar asarning ma’naviy-axloqiy qimmatini yoritishga xizmat qilgan.

**Kalit so‘zlar:** ona, adib, axlooq, ona, sharq ayoli, zamon, qissa, hikoya.

O‘tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" asari badiiy adabiyotga bolalik timsoli sifatida namoyish etadi, Yozuvchining o‘z davri jamiyatining muammolarini, insoniy munosabatlarni, va tabiatning kuchlarini badiiy va g‘oyaviy uslub bilan aks ettirishining muhimligi ta‘kidlanadi.

60-yillar o‘zbek adabiyotida yangicha dunyoqarash shakllana boshlandi. Bu dunyoqarashning shakllanishida Abdulla Oripov, Said Ahmad, Zulfiya, Abdulla Qahhor, O‘tkir Hoshimov kabi otash nafasli ijodkorlarning beqiyos hissasi bor. Ular o‘z asarlarida haqiqiy insoniy tuyg‘ularni jamlay olgan, ammo insonlar bu tuyg‘ularga boy obrazlarni oddiy qahramon sifatida qarshilagan. 60-yildan hozirgi kungacha bo‘lgan manbalarda ijodkorlar badiiy asarlarini shunday tuyg‘ularga boy holda yozdilarki, o‘quvchi inson shu qahramonlar asosida ichki kechinmalarini o‘zida his qilib o‘qiy oldi.

„Dunyoning ishlari“ — O‘zbekiston xalq yozuvchisi O‘tkir Hoshimov qalamiga mansub memuar qissa. Asar katta-kichik hikoyalardan iborat, uzoq yillar davomida yozilgan va to‘liq tarzda 2005-yilda “Sharq nashriyoti” tomonidan nashr etilgan. Keyinchalik boshqa nashriyotlar tomonidan ham ko‘p bora qayta nashr etildi. Jumladan 2015-yilda Yangi asr avlodni nashriyoti tomonidan 336 betli qattiq muqovada nashr etildi. Shu yili Meriyus nashriyoti tomonidan 272 betda, 3000 nuxsali qattiq



muqovada nashr etildi. Ushbu nashrning ustki qismida qishloq ko‘chasidagi uylar va adibning onasi tasvirlangan. “Dunyoning ishlari” ingliz tiliga tarjimasi 31 martdan Amazon saytida sotuvga chiqqan. “Dunyoning ishlari”ning reklamasi Nyu-York metrosida ham paydo bo‘lgan. Tarjimonlar Mark Ris va Abdulla Ro‘ziyevlar asar nomini ingliz tiliga “Such is Life” deb o‘girishgan. Risning yozishicha, kitobni tarjima qilishdan nashr qilishgacha 5 yil vaqt ketgan. Ris kitobni nashr qilishgacha bo‘lgan bosqichda qatnashganchilarga minnatdorchilik bildirgan.

Kitobning orqa tomonida adibning quyidagi so‘zлari keltirilgan: “Dunyoda hech bir chegarani tan olmaydigan va quyosh kabi muttasil nur sochib turadigan sehrli kuch bor. Bu—Ona mehri! Alloh Onani shunday yaratgan!”

Tarixiy-falsafiy qonuniyat, zamonning o‘zgarishi, atrof-muhit, jamiyat va insonning aqliy rivojiga qaramasdan, insonning o‘zi har doim bir yo‘ldan borishi haqida o‘zgarmas tamoyilga asoslangan. Qanchalik, zamon o‘zgarmasin, eng buyuk, porloq fazilatlari bor insonlar bilan bir vaqtning o‘zida eng yoqimsiz xislatlarga boy insonlar ham yashab o‘tishini taqozo etadi. Qissadagi “Ona” obrazi, muallifning faqatgina o‘tgan voqealarni tasvirlash bilan chegaralanib qolgan yoki o‘z onasi timsolida ideal ona obrazini tadbiq etishga harakat qilgan, deb ta’kidlash o‘quvchining asarni to‘liq o‘qib tushunchaga ega bo‘la olmaganidan dalolat beradi.

Asarda ona siyoshi hamda hayot mobaynida inson tug’ilishi unib o’sishi hamda hayot qiyinchiliklariga uchrayshi haqida gap boradi. Dunyo ham atay qilgandek uni har ko‘yga solib yuboradi. Gohida hayotdan to'yib ketasiz. Ko‘nglingizga qil ham sig‘maydi. Xuddi shu chog‘da hammasiga qo‘l siltab allaqayerlargadir ketishni, bularning barchasini unutishni xohlaysiz. Lekin nimadir sizni bu ishlarni qilishdan to‘xtatib qolaveradi. Sizni bandi qilgan bu kishanlar xotiralar bo‘ladi. Bu sizning yoshligingiz o‘tgan o‘scha ko‘chalar, o‘scha eski uy va qachonlardir sizni quvonch va sog‘inch aralash ko‘z yoshlari ila kuzatib qo‘ygan, sizni intiqlik bilan kutgan insonlardan qolgan so‘nggi yodgorlik, bir uyum tuproq, xolos. Bulardan kechib qayoqqa ham borasiz. Axir Axir siz bu yerga qachonlardir ko‘nglingizni ko‘mgansiz. Bas! Hech qayerga ketolmaysiz. Dunyoning ishlaridan qutulolmaysiz. Dunyo o‘zi shunday. Sizdan oldin ham shunday bo‘lgan, sizdan keyin ham shundayligicha qoladi. Agar dunyo yaxshi bo‘lganida edi, tug‘ilganimizda yig‘lamas edik. Agar dunyo toza bo‘lganida edi, o‘lganda yuvilmas edik. Bir dam o‘tirib o‘yga cho‘masiz. Butun hayotingizni ko‘z o‘ngingizdan o’tkazasiz. Inson naqadar ilojsizligini tushunasiz. Tushunasiz-u, yana hech nima qilolmaysiz. Oxir oqibat hammasiga ko‘nasiz. Shuncha vaqt dunyo sizda yashar edi. Umringiz oxirlab borar ekan siz dunyoda yashayotganingizni his qilasiz. Inson kelaveradi, ketaveradi. Faqatgina dunyo abadiy, inson emas. Sizning o‘tgan turfa hayotingiz esa dunyoning ishlari kabi davom etganini ko‘rishimiz mumkin.

“Dunyoning ishlari” qissasi hech mubolag‘asiz onalar uchun o‘rnatilgan haykal bo‘ldi. Asardagi har bir ona timsoli benuqson va soddalik bilan tasvirlangan. Ijodkor asarning har bir bo‘limidagi ona obraziga sharqona, o‘zbekona ruh singdirgan. Ushbu ona timsolining xarakter-xususiyati adibning boshqa asarlaridagi ona obrazlariga ham ko‘chdi, deb bemalol aytish mumkin. Chunki O‘tkir Hoshimov ushbu asarda tom ma’noda o‘zbek onasini bor fazilatlari bilan yaratgan edi. “Dunyoning ishlari” qissasi hech mubolag‘asiz onalar uchun o‘rnatilgan haykal bo‘ldi. Asardagi har bir ona timsoli benuqson va soddalik bilan tasvirlangan. Ijodkor asarning har bir bo‘limidagi ona obraziga sharqona, o‘zbekona ruh singdirgan. Ushbu ona timsolining xarakter-xususiyati adibning boshqa asarlaridagi ona obrazlariga ham ko‘chdi, deb bemalol aytish mumkin. Chunki O‘tkir Hoshimov ushbu asarda tom ma’noda o‘zbek onasini bor fazilatlari bilan yaratgan edi. Yuragim shuv etib, onamning pinjiga kirardim. Ishqilib boshqa yulduz uchmasin! Qissada adib ona timsolini yaratishda ikki asosga tayangan: birinchisi, u real borliqda mavjud shaxs, ya’ni ijodkorning o‘z onasi. Asarning boshida muallif bu xususida to‘xtalib o‘tgan: “Bu qissa katta-kichik novelalardan iborat. Biroq ularning barchasida men uchun eng aziz odam – onam siymosi bor”; ikkinchisi, umumlashtirish prinsipi orqali. Bunda ijodkor o‘zbek onasining umumiy xarakter va xususiyatlarini bir ona obrazida jamlangan. “Ermon buvaning tilagi” hikoyasida hayotda hamma narsa jufti bilan yaratilganiga ishoralar seziladi. Bunda bir otaning ayoli vafoti va o‘g‘lining sog‘inchi o‘ziga xos uslubda aks ettirilgan. “Dunyoning ishlari” qissasi chuqur psixologik asar hisoblanadi. O‘qigan har bir insoni ta’sirlantiradi. Qaysidir hikoyalari insonning yuziga tabassum yugurtirsa, boshqa voqealar ko‘zga yosh indiradi. Mazkur hikoyaning oxirida boboning jinni bo‘lib qolishi voqelarni tubdan o‘zgartirib yuboradi. Unda shunday so‘zlar keltiriladi: “Oltmishvoyim keldi, - dedi Ermon buva iljayib. - Keldi! Kampirim ham keldi. Ikkovlari mozor boshiga ketishdi”. Asarning so‘ngida “Oq marmar, qora marmar” va “Iltijo” kabibi hikoyalari bilan yakunlanadi. Unda qabr boshida turgan farzandning onasi bilan so‘zlashuvi aks etgan. Farzand qancha pushaymon bo‘lmashin vaqtini ortga qaytarolmaydi, faqat onasing qabri boshida nodon farzand bo‘lganidan kechirim so‘rashdan boshqa ish qo‘lidan kelmaydi. Bunday tasvirlar, albatta, o‘quvchini chuqur o‘ylashga va xulosa qilishga undaydi. “Iltijo” qissaning eng so‘nggi hikoyasi. Adib ushbu asarda o‘z hayotidagi muhim voqeani eslaydi. Oxirgi parchada yozuvchi onasi hayotligida qancha asar yozgan bo‘lsa ham, onasiga atab bir asarini bag‘ishlamaganligiga afsuslanadi. Ushbu parchadagi eng ta’sirli jumla: “Meniyam kitob qilib yozsang-chi, o‘g‘lim”, degan so‘zlar bo‘ladi. Darhaqiqat, qissada ona qiyofasi keng va to‘laqonli tavsiflanadi. Bu tavsiflanish jarayonida adibning adabiy mahorati va individual uslubi ko‘zga tashlanadi.

“Tarozining” (qissaning) ikkinchi yana bir muhim pallasi sifatida insonning tarbiyasiga bo‘lgan kuchli impuls beruvchi xislatini ta’kidlash joiz. Adabiy asar o‘z

jihatlari bilan ilmiy materialdan keskin farq qilib, insonning fikrlash qobiliyatini rivojlantirish, uning hayotni “sezish”ga bo‘lgan intilishini rag‘batlantirishga qaratilgan. Xulosa qilib ta’kidlash mumkinki, muallif tomonidan ilgari surilgan insoniylik, tarbiya va ona tushunchalari ushbu qissa bilan to‘liq o‘quvchiga yetkazilgan. Xulosa qilib aytganda, ona mavzusi O‘tkir Hoshimov uchun navqiron, abadiy tugallanmas ilhom manbaidir. “Dunyoning ishlari” qissasi muallif har bir farzand vaqtida onasini qadriga yetishi va uning oldidagi burch hamda vazifalarni bajarishi lozimligini eslatadi. Yo‘qsa, vaqtlar o‘tgandan so‘ng afsus qilishi tayin. o‘ttizta novellani o‘zida jamlagan ushbu asar, o‘zbek onalarining kechinmalari, histuyg‘ulari, go‘zal xislatlarini ochib berish bilan birga, farzandlar uchun nasihat hamdir.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES)

1. Umumiy siyosatshunoslik lug‘ati. (2018). – Moskva
2. Go‘dak va eski tartib davridagi oilaviy hayot. Hayot bosqichlari bo‘limi. – Nyu York: Fency.
3. Ahmad, S. Dunyoning ishlari qissasi haqida [elektron kitob]
4. Gandhi, I. (2018). Indira Gandhi hayoti va siyosiy faoliyati. Hindiston Milliy kongresi oldidagi nutqi. – Moskva 2.] //
5. [http://kutubxonachi.uz/documents/asar/adabiyot/o-zbek/pdf/okir\\_hoshimov/dunyoning-ishlari-qissa/#gsc.tab=0](http://kutubxonachi.uz/documents/asar/adabiyot/o-zbek/pdf/okir_hoshimov/dunyoning-ishlari-qissa/#gsc.tab=0)
6. Vagner, V. (2005).
6. Qiyosiy psixologiya biologik asoslari. – Aql va idrok.
4. Aryes, F. (2019).
7. Abdullaeva, O. O. Q. (2021). O’ZBEK TILINI O’QITISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOYIYALARING O’RNI.
8. Abdullaeva O. O. K, Tadjibaeva D. SH. K, Shermatova U.S. (2021). From Interactive Methods In Mother Tongue Classes Use.
9. Abdullaeva O. O. K, Kurbanova M. F. (2021). The Role of International EGRA and EGMA Reserch in Increasing Educational Efficiency.